E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

QADIMGI DAVRLARDAGI KO'CHMANCHI SAK, MASSAGET QABILALARI HAQIDA MUSHOHADALAR

Ochilov Iskandar Omongaldi o'g'li
Guliston davlat universiteti
"Tarix" yo'nalishi talabasi
ochiloviskandar13@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada qadimgi davrlarda yashagan qabilalar – sak massagetlar haqida bayon qilinadi. Ularning uyushishi qabilaviy hamjihatlikda olib borilgan kurashlari, turmushi haqida yoritilgan. Ular xaqidagi yunon-rim tarixchilarining fikrlari bayon etilgan.

Massagetlarning eroniylar ustidan qozonilgan g'alabasi ularning jangovorligini yana bir bor isbotladi. Tashqi xavf-xatar, bosqinchilarning ayovsiz hujumi O'rta Osiyo siyosiy maydonida ko'chmanchi qabilalarning yagona ittifoqqa jipslashishini taqozo etgan.

Muarrix Gerodotning yozishicha, qadimda turonliklar, xususan, massagetlar Quyoshga, Yerga sajda qilganlar.Gerodot massagetlarning vatanparvarlik jihatlari ustun darajada tasvirlangan. Ularda yana o'zaro hamjihatlik ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki bu kurashda massagetlarning yolg'iz o'zi xarakat qilmagan, ularga shu ittifoqqa kirgan saklar va derbiklar tezda kelib qo'shilganlar. Yunon mualliflari ma'lumotlarida saklar podshosi Amorg 20 ming kishilik otliq qo'shin bilan yordamga kelganligi to'g'risidagi qaydlar mavjud.

Strabonning ma'lumot berishicha, skiflarning asosiy qabilalaridan biri doy (dax)lar bo'lib, Janubiy Turkmaniston hududida, Kaspiy dengizining sharqiy qismida yashaganlar. Demak, miloddan avvalgi VII-V asrlarda ularning shimoliy sharqida, Orol dengizining janubiy sohillarida sak-massaget qabilaviy ittifoqi harbiy siyosiy boshqaruv asosida kun kechirmoqda edi. Ya'ni, Xorazm xududida atasiylar, derbiklar, alanlar, saklar, xarasmiylar, qang'lilardan iborat sak-massaget qabilalar ittifoqi (konfederatsiya) mavjud bo'lib turgan. Bu ittifoqqa kirgan har bir qabila o'z dohiysiga ega bo'lgan.

Xorazm vohasida istiqomat qiluvchi sak-massagetlarning ittifoqini Xorasmiylar boshqargan. Mana shu etnik guruhlar Xorazm vohasi aholisining qadimgi ildizlarini tashkil etgan. Xorazm xalqining etnogenezida asosan ikki etnik element – turkiy va forsiy-tojik elementlari qatnashgan. Abu Rayxon Beruniyning ta'kidlashicha, turkiy qabilalar Xorazmning eng qadimiy etnik guruhlardan bo'lib, Xorazm xalqi o'sha etnosdan kelib chiqqan. Shuning uchun ham ular qadimgi turkiy qabilalarni o'zlarining ajdodlari deb hisoblaydilar. Vaholangki, cho'l-qum zonasida yashagan aholi yarim, ko'chmanchi, yarim o'troq bo'lib, chorvachilik, ovchilik ishlari bilan shug'ullanishgan.

Sak ittifoqiga mansub aholi esa Iskandar Zulqarnayn istilosigacha Sirdaryoning quyi oqimida yashagan bo'lsa, keyinchalik Karki Xalif, Shimoliy Afg'oniston yerlariga ko'chib o'tganlar. Strabon ularni, yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, "dax", "day", "dev" nomlari bilan ataydi. Qadimgi Xitoy manbalarida ular Amudaryodan janubda yashovchi "daxa" nomi bilan atalgani aytiladi. Qadimgi yunon va Eron manbalarida Parfiya, Marg'iyona va So'g'diyona saklarining ahamoniylar davlatiga boj to'lab turganlari qayd etiladi. Saklar hozirgi Qozog'iston va Sharqiy Turkiston, Amudaryo va Sirdaryo shimolidan tortib to Janubiy Sibir yerlarigacha bo'lgan tog'lar, cho'llar va dashtlarda ko'chmanchi holda yashaganlar. O'troqlashganlari So'g'd, Baktriya va Parkana xalqlari tarkibiga singib ketganlar. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ko'chmanchi qadimgi qabilalar tarixi Eron davlati tarixi bilan bog'liq holda o'rganiladi. Ahamoniy podsho Doro I (mil.avv. 522-486 yillar) o'z davrining tanilgan davlat arbobi va harbiy sarkardasi edi. U mahalliy hukmdorlarning mustaqil harakatlarini barham toptirdi. Tashqi siyosatda qo'shni

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

hududlarga istilochilik yurishlari uyushtirib, imperiya chegarasini yanada kengaytirish yo'lini tutdi.

O'z shohligining uchinchi yili (mil.avv.519-yil) Doro I saka-tigrauxadalar ustiga qo'shin tortadi.Doro I ning saklarga qarshi yurishi haqida Behistun yozuvlarida Shunday deyiladi: "SHoh Doro ayturki: ...keyin qo'shin bilan saklar mamlakatiga yurish qildim. Keyin uchli o'tkir kuloh kiyib yuruvchi saklar jangga kirishdilar. Men daryodan o'tgach, saklarni tamoman tor-mor keltirdim, qolgan qismini asirga oldim.... Ularning Skunxa degan boshlig'ini qo'lga tushurib, huzurimga keltirdilar... Shunda men ularga boshqa boshliq tayinladim. Men shunday bo'lishini xohladim."

Demak, Doroning O'rta Osiyodagi istilochilik yurishlari oson kechmagan. Bu gal ham eroniylar hamma joyda erksevar xalqining kuchli qarshiligiga uchraydi. Lekin shunga qaramasdan Doro I qo'shinlari O'rta Osiyoning janubiy va markaziy viloyatlarini, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi ayrim joylarni – Parfiya, Baktriya, Ariana va So'g'diyonani hamda saklarni, Xorazmning bir qismini bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldilar.

Ammo jangovor sak qabilalarining ko'pchilik qismi va Xorazm davlati bu gal ham o'z mustaqilligini saqlab qola olgan. Ular o'z hukmdorlari tomonidan boshqarilgan.

Forslarning saka-tigrauxadamalar ustiga yurishi haqida tarixchi Polien (mil.avv. II asr) "Harbiy hiylalar" asarida to'xtalib o'tdi. Bu asarda yana O'rta Osiyoda yashagan skiflar va sak qabilalarining tadbirkor bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar bor. SHuningdek, asardagi ma'lumotlar qaralsa, Doro birinchi bo'lib, qo'l ostidagi xalqlarga o'zini yomon ko'rsatmaslik uchun soliq hajmini aniqlash va uni yig'ishnixokimlarga topshirganligini guvohi bo'lamiz. Doro saklarni darhol yengishiga ko'zi yetmagan. Ularni aldash uchun qarorgohini o'z joyidan ko'chirmaydi. Qarorgohda necha jangchini qoldirib, ularga kechasi bir-necha joyga gulxan yoqishni buyurib, o'zi asosiy qo'shin bilan chekinadi. Keyinchalik sak qabilalari bu Doroning hiylasi ekanligini sezishadi. Biroq endi Doroni quvib yetish qiyin edi.

Saklarning bir otryadini qo'lga olgan Doro o'z jangchilariga ularning kiyimlarini kiydirib, saklar oldiga jo'natadi. Bularni saklar yordamga kelgan do'stlarimiz deb kutib oladilar. Shunday qilib, saklarning qolgan otryadi hamtor-mor qilinadi.

O'zbek xalqi og'zaki ijodida afsona deb nomlanadigan "SHiroq" hikoyati ham Polien asari orqali bizgacha yetib kelgan. Unda hikoya qilinishicha, Doro saklarni o'ra bolganida, ularning sarkardalari Sak esfar, Omarga va Famirn so'z aro maslaxatga to'planishadi. Shu daularga Shiroq degan otboqar kelib, agar mening balalarimga uy va ko'p pul bersalaring Men Doro qo'shinlarini yolg'iz o'zim yo'q qilaman, deydi.

Saklar bunga rozi bo'lishadi. Shiroq shu yerda yoqpichoq bilan burnini, qulog'ini va boshqa joylarini kesib, yo'lga tushadi va Doro huzuriga achinarli ahvolda kirib kelib, meni shu ahvolga solgani uchun saklardan o'ch olishim kerak, buning uchun sizlarga yordam beraman, deydi. Doro uning gapiga ishonadi.Shunday qilib, Doro qo'shiniga yo'l ko'rsatuvchi bo'lib, ularni uzoq bir cho'lga boshlab boradi. U yerda na bir suv, na bir daraxt bor edi. Harbiy boshliq Ranosbat SHiroqdan "Bizni qaerga olib kelding?"- deb so'raydi. Shunda Shiroq kulib deydi: "Men sizlarni yengdim. Bu bilan ham yurtlarim saklarga yordam berdim." Buni eshitgan Ranasbat darhol Shiroqning boshini tanidan judo qiladi. Shunda Doro Apollonga: "suv yetkaz", -deb iltimos qiladi. Shundan so'ng, cho'lga yomg'ir yog'adi va ko'p jangchilar o'limdan qutqariladi. Shu bilan Baktriya daryosiga yetib oladilar.

Doroning skiflar yurtiga yurishi haqida ko'plab rivoyatlar mavjud. Ularning deyarli barchasida Doroning skiflardan yengilgani haqida hikoya qilinadi, Polien keltirgan "SHiroq" hikoyatida Doro qo'shinlarning skiflar tomonidan tor-mor etilgani bayon qilinsa, Gerodot asarida esa skiflar

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

bilan jangda Doroning bevosita o'zi qatnashadi. Gerodot (Gerodot, Tarix, 1, 215) va Strabon (Strabon, Geografiya, x 1, -8) xorazmliklarni massagetlar tarkibiga kiritadilar; Doro va Kir yozuvlarida esa xorazmliklar haqidaga pirib, ular sak va so'g'diylar qatorida o'lpon to'lovchilar edi, deb aytiladi. Aftidan, massagetlar ittifoqi ko'chmanchi ittifoq bo'lmay, ular Xorazm podsholari hokimiyati qo'li ostida birlashtirilgan bo'lganlar. Bu podsholar Farasmanning avlod-ajdodlari bo'lib, ular ahamoniylar yerlarining kengaytirilishidan ilgari Baktriya va Midiya bilan qo'shni bo'lgan Janubiy Turkmaniston vohalariga egalik qilganlar.68

Farasman elchilari Zariaspga Iskandar huzuriga ahamoniylar noibligi sifatida emas, balki o'z mustaqilligini saqlab qolgan Xorazm siyosiy vakillari sifatida borganlar. Xorazm podsholigi mil.avva. IV asrda, podsho Farasmanning so'zlariga qaraganda (Arrian, Iskandar Zulqarnayn Anabasisi, IV, 15), qudratli Ahamoniy davlati bilan chegaradosh bo'lgan va chamasi o'z chegaralarini Volgabo'yi, shimoliy Kaspiybo'yi hududlari tomon ham kengaytirgan.

Yuqorida aytilganidek, janubiy-sharqiy Yevropa yerlarida massagetlar tomonidan skiflarning kimmeriy yerlariga siqib chiqarilishi Xorazm – massaget ittifoqining Gerodot yashagan davrgacha birlashginidan guvohlik beradi. Bu siyosiy ittifoqda, aftidan, Xorazm boshchilik qilgan. Shuning uchun ham bu yerda so'g'dlar va baktriyaliklarning "qoyalar" deb ataladigan istehkomlarga o'xshash rol o'ynagan katta magistral kanallar, katta-katta qal'alar va dehqonchilik vohalari ichida qurilgan molqo'ra uslubidagi shaharlar vujudga kelgan. Dastlab bu tip shaharlar ikki qator qilib solingan qalindevorlar bilan o'rab olingan katta to'rtburchak shaklda bo'lib, devorlar vohaga tez-tez hujum qilib turadigan ko'chmanchilardan aholini himoya qilgan, harbiy xarakatlar vaqtida ham aholi mana shu devorlar ichkarisida o'zini saqlagan.

Ko'chmanchilarning madaniy an'analari va urf-odatlari, ularning xo'jaligi va yashash sharoitidan kelib chiqib, bir-biridan uncha farq qilmagan. Ma'lumki, "Avesto"da O'rta Osiyoning eng qadimgi chorvador va ko'chmanchi qabilalari "tur", "danu", "xyaono" nomlari bilan atalgan. Ular ko'chmanchilar orasida harbiy-siyosiy qabila uyushmalari vujudga kelgan davrlarda yashaganlar. Shudavr "Avesto"da tilga olingan bahodirlar va podsholarning ish-harakatlari, harbiy yurishlari davriga to'g'ri keladi. Ya'ni Kavi Vishtaspning g'olibona jangida "xyaona yozuvi Ashtarvant "devlarnin qadrlagan" Darshin ustidan g'olib chiqishi shunga mos keladi.

Tarixdan ma'lumki, mil.avv. II mingiyllikdan boshlab chorvador ko'chmanchi qabilalar dehqonchilik vohalari chegaralarida joylashib, yangi etnik madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga asos solganlar.Keyingi davrlarda sak-massagetlarning yerlariga boshqa ko'chmanchilar kelib o'rnashganlar. Ular yana O'rta Osiyoning o'troq xo'jaliklariga ega joylar (So'g'diyona, Xorazm, Baktriya va Parfiya) chegaralariga ham joylashganlar.

Dastlabki ko'chmanchilar tarixini o'rganishda Quyi Sirdaryodagi mil.avv. VII asrlarga oid Pogispen maqbaralariga e'tibor berish lozim. Ular xom g'ishtdan bino qilingan, to'rtburchak, xalqasimon maqbaralardir. Unda ko'chmanchilarning sardorlari, jamoa oqsaqollari dafn etilgan.Saklarning mazor-qo'rg'onlari Baktriya yerlariga yaqin bo'lgan Pomir tog'larida, So'g'diyona chegaralarida, Quyi Zarafshonda, Xorazm atrofida, quyi Sirdaryoda topib tekshirilgan.Chorvador qabilalarning va dehqonchilik bilan shug'ullangan aholining tarixi uzviy bog'liq bo'lib, O'rta Osiyoxalqlarining tarixi va madaniyati yangi asosda rivojlanib borgan.Tarixiy manbalarda Eron shohlari O'rta Osiyo hududidagi yerli aholini turli majburiyatlarini bajarishga, kanal va to'g'onlar, qal'a va qasrlar qurilishiga ham safarbar etganlar. Sug'orish tarimoqlaridan qo'shimcha daromad olishda ustalik bilan foydalanib kelganlar. Gerodot o'z asarlarida Doroning buyrug'I bilan Atrek daryosidan (Tajan) beshta ulkan to'g'on qurilganini, yerli aholi suvsiz qoldirilganligini, fuqarolar suv so'rab, iltijo qilganligini yozib qoldirgan. So'ngra to'g'onlar navbatma-navbatochishga ruxsat etiladi. Buning evaziga aholidan qo'shimcha ravishda yig'im undiri bolinadi. Ahamoniylar davrida viloyatlarni

boshqarish – qabila boshliqlari va mahalliy hukmdorlarning bevosita o'zlariga topshirilgan. Eron shohlari ularni mumkin qadar o'z ta'siriga olishga harakat qiladilar. Shu maqsadda mahalliy hukmdorlarga katta imtiyozlar berilgan edi.

Ma'lumki, saklar va xorasmiylar alohida satraplik asosida Eron davlatiga soliqlar to'lab turgan.70 Doro I Xorazm va saklarning yuzaki qaram ekanligini hisobga olib, miloddan avvalgi 512 yilda Shimoliy Qora dengiz bo'yidagi skiflar ustiga yurish uyushtiradi. Bundan maqsad skiflarning orqa tomoniga o'tib olib, so'ngra Kaspiy va Orol dengizi orqali Xorazmga, Saklar va derbeklarga zarba berish va shu yo'l bilan imperiya chegarasini Orol, Kaspiy va Shimoliy Qora dengiz sohillarigacha kengaytirish edi. Bizga yuqorida keltirib o'tganimizdek, Doroning skiflar ustiga yurishi natija bermaydi.Demak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sak-massaget ittifoqiga kirgan qabilalarning yashash tarzi, kundalik mashg'ulotning o'ziga xosligi hududining geografik jihatdan joylashuviga, tabiiy iqlim sharoitiga bog'liq holda yuzaga kelgan. Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning mavjudligi taraqqiy qilib borishi samarasida dastlabki siyosiy birlashmalar ko'rinishi shakllana boshlagan. O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalarida qabilaviy uyushmalarning vujudga kelishi yoki ilk davlatchilik muammosining o'rganilishi natijalari yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

– XX asrning 30-yillariga qadar G'arb tarixshunosligida asosan Baqtriya va Xorazm davlati masalasi tahlil topib, ko'chmanchi qabilalarida qabilaviy uyushmalarning vujudga kelishi yoki ilk davlatchilik muammosiga deyarli e'tibor qaratilmagan;

– sovet davri tarixshunosligida ushbu masala yozma va arxeologiya ma'lumotlarining qiyosiy tahlili asosida o'rganilgan bo'lib, bir guruh olimlar tomonidan Ahamoniylar davriga qadar O'rta Osiyoning keng dasht va cho'l zo'nalarida ko'chmanchi qabilaviy konfederatsiya tipidagi davlatining rivojlanganligi tan olingan; – XX asrning 60-80-yillarida nashr etilgan turli adabiyotlarda "Avesto"da tilga olingan Franrasyon, Ashtarvant, Arjatasp boshliq ko'chmanchi "tur" qabilalarning siyosiy birlashmasi to'g'risidagi ma'lumotlar keng yoritilgan, ammo bu masala hozirgi kunga qadar bahsli bo'lib, o'z yechimini topmagan;

– sovet davri tarixshunosligida O'rta Osiyo hududlaridagi ko'chmanchilarning ilk davlatlari Qadimgi SHarq tsivilizatsiyalari ta'sirida paydo bo'lgan degan fikrni bildirib, ularning shakllanishida bir – biriga bo'lgan dushmanlik, qarama - qarshilik boshqaruv va davlatning vujudga kelishini taqozo qilganligi qayd etilgan. Ammo, Qadimgi SHarqda sodir bo'lgan tarixiy jarayonlarni qiyoslash, to'g'ridan-to'g'ri O'rta Osiyo sharoitiga ko'chirish tarixiy nuqtai nazardan bahsli masala hisoblanadi;

– XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib, O'rta Osiyoning ko'chmanchi chorvadorlar hududlarida davlatchilikning shakllanishi jarayoni mintaqaning shimoliy viloyatlarida ilk temir davrida boshlandi, deb ta'kidlandi va ilk davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishi yangi ma'lumotlar asosida ko'rib chiqildi.Umuman olganda, mintaqa, jumladan, O'zbekistonning zamonaviy tarixshunosligida qadimgi ko'chmanchilarning boshqaruv tizimi va ilk davlatchilik muammolari bilan maxsus shug'ullanayotgan mutaxassis olimlarning miqdori yetarli emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Матниёзов М., Сотлиқов А. Жаҳон тарихи ва маданиятида Хоразм. – Урганч, 1999.Б. 5.

2. Бойназаров Ф. Средная Азия в античном периоде. – Т., 1991.С.242.

3. Толстов С.П. Древный Хорезм. – М., 1948.С.42.

4. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. –Т., 1996. Б. 27.

5. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник таризи. – Т., 2007. Б. 139.